

Tarjimada leksik birlik va leksik transformatsiyaning qo'llanilishi

Buxdu II bosqich magistranti Norova Mexri

Millatni dunyoga tanituvchi muhim omillardan biri – adabiyotdir.

Uzoq yillar davomida o'zbek adabiyotini to'g'ridan-to'g'ri ona tilimizga tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iste'dodli o'g'il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda olijanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkiliy-ommaviy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uning avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi.

Mustaqillik davrida tarjimashunoslikka katta e'tibor berildi va berilyapti. Yuzlab asarlar tarjimonlarimiz tomonidan tarjima qilinyapti. Shulardan biri tarjimon Fathulla Namozov tomonidan ingliz yozuvchisi D.X.Cheyz asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, kitobxonlarga tanishtirilyapti

Djeyms Xedli Cheyz britaniyalik detektiv asarlar yozuvchisi bo'lib, 1906-yili Londonda tug'ilgan. 1939-1984 yillar ichida 93 ta detektiv asarlarini yozgan bo'lib, uning asarlari ayniqsa Yevropa, Osiyo, Afrikada juda mashhur. Dunyoning ko'plab tillariga, shuningdek o'zbek tiliga ham tarjima qilinyapti. Uning "Gonkongdan kelgan tobut" detektiv sarguzasht romanidagi leksik transformatsiyalarni tahlil qilamiz.

Tarjima san'ati eng nozik va nafis san'at turlaridan biri bo'lib, so'z o'rnining mukammal, puxta qo'llanilishini talab etadi. So'zlar shunday tanlanishi kerakki, tarjima hammaga tushunarli bo'lishi, asl jumlada ifoda etilgan ma'no tarjimada berilgan ma'no bilan muvofiq bo'lishi zarur. Bunday muvofiqlikni yuzaga keltirish uchun tarjima qilinayotgan gaplar so'zma-so'z, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi. Agar shunday bo'lganida edi, tarjimadan osonroq ishning o'zi bo'lmagan bo'lar edi. Tarjima san'atining o'ziga xosligi, nozikligi, sirlari ham ana shunda namoyon bo'ladi. Tarjimaning murakkab va muhim omillaridan biri so'zlarning transformatsiyaga uchrashidir.

"Transformatsiya"-(lotincha) o'zgartirish, almashtirish degan ma'nolarni ifodalaydi, tarjimada ularning leksik, stilistik va Grammatik turlarini uchratamiz.

Leksika so'zlardan, so'zlar majmuidan iborat bo'lib, unga tilning asosiy til birligi, til va nutqning eng muhim omillaridan biri, tilning eng kichik asosiy birligi deb ta'rif berilgan. Ammo so'z til birligi sifatida juda murakkab xususiyatga ega va har bir so'z qandaydir ma'no-mazmun kasb etadi. Tarjimadagi leksik birliklarga L.S.Barxudarov quyidagicha ta'rif bergan: "Tilda mavjud bo'lgan barcha birliklar, ya'ni fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi va gap tarjima birligi bo'lishi mumkin". Tarjimon esa tarjima jarayonida o'z mahoratini ishga solib leksik

transformatsiyalarni to'g'ri qo'llay olishi zarur va tarjima qilayotga tili leksikasi va ona tili leksikasini mukammal bilishi zarur¹.

Ma'lumki, tarjima jarayonida bitta tushunchaga aynan bitta tushunchaning to'g'ri kelishi juda kam uchraydi. Tarjimada bir so'zga bitta so'z, so'z birikmasi yoki gap to'g'ri kelishi mumkin. Demak leksik birlik ham so'z, ham so'z birikmasi, ham gap bo'lishi mumkinligi so'zlarning tarjimada transformatsiyaga uchrashiga sabab bo'ladi

Tarjimadagi leksik birliklarda so'zlar bir-biriga qisman yoki to'la mos kelishi yoki umuman mos kelmasligi mumkin. Shunga ko'ra leksik birliklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1.To'liq mos keladigan leksika;
- 2.Qisman mos keladigan leksika;
3. Umuman mos kelmaydigan yoki o'xshashi yo'q leksika.

To'liq mos keladigan leksikaga asliyatdagi so'zda tarjima tilida bitta so'z to'g'ri kelsa, to'liq mos keladigan leksikaga kiradi va ularga geografik joy nomlari, atoqli otlar, ilmiy-texnik atamalar, sanoq va tartib sonlar va kun hafta, oy nomlari, korxona, tashkilot, idora, muassasa, mehmonxona, kema nomlari kiradi. Tarjima jarayonida bunday so'zlar hech qanday qiyinchiliklar tug'dirmaydi, ular ko'pincha monosemantik bo'ladi, to'g'ridan-tog'ri tarjima qilinadi, lug'aviy ma'nolari har bir tilga mos keladi.

Qisman mos keladigan leksikaga asliyatdagi bitta so'z tarjima jarayonida qisman mos keladi va ularni quyidagi holatlarda uchramiz:

1. Bir tilda boshqa tilga to'g'ri keladigan ekvivalentdan tashqari qolganlari boshqa ma'no ham ifodalashi mumkin. Masalan, Ingliz tilida "close" so'zi o'zbek tilida "yopmoq", "berkitmoq" deb tarjima qilinishidan tashqari "yaqin", "yonmayon", "yonida" degan ma'nolarni ham ifodalaydi. "Slip" so'zi tarjimada "qattiq uxlamoq", "biror ishni tez bajarmoq", "yomon tarafga bormoq", "qog'oz parchasi", "kichik xato", "biror narsadan qochmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni ular polisemantik bo'lib, ko'p ma'nolarni ifodalashi mumkin, shuni ta'kidlash o'rinliki, ingliz tilida bitta so'z maksimal 23 ta ma'noni berar ekan. Tarjimon o'z mahoratini qo'llab kontekstdan kelib chiqqan holda kerakli, mos so'z tarjimasini qo'llashi kerak. Tarjima jarayonida ko'p ma'noli so'zlar bir tilda bir ma'noda berilsa, ikkinchi tilda boshqa ma'nolarda ham keladi.

2.Qisman mos leksikaga ma'no kesishish hodisasini ham uchramiz. Bunda ikki tildagi berilgan so'z bir xil ma'no yoki ma'nolarni ifodalashidan tashqari, ayni paytda ularning bir- biriga to'g'ri kelmaydigan ma'nolari ham bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "ball" so'zi omonim so'z bo'lib, "koptok" va "bal raqsi" deb tarjima qilinadi. O'zbek tilida "ball" deyilganda faqat "raqs kechasi ma'nosi tushuniladi.

3.Shuningdek, tarjimada shunday leksik birliklarni uchramizki, mos ekvivalentni tanlash juda qiyin bo'ladi. Masalan, Ingliz tilida "hand", "arm"
--

¹ Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.,1978

so'zlari bitta so'z bilan o'zbekchaga "qo'l" deb tarjima qilinadi, "guy", "boy" so'zlari ham bitta ma'no bilan "o'gil bola" deb tarjima qilinadi.
2.Qisman mos ekvivalentlikda so'zlarning sinonimik qatorini, ma'no bo'yoqdorligini o'rganish zarur. Masalan, "her pretty face" so'z birikmasi "uning go'zal afti, basharasi" kabi salbiy ma'no bo'yoqdorligini ifodalovchi so'zlar bilan emas, balki ijobiy ma'no ifodalovchi so'zlar bilan, ya'ni uning "go'zal yuzi, chehrasi" kabi tarjima qilinishi, tarjimon esa sinonimik qatordagi dominant so'zlarni bilishi zarur.
3.Shunday so'zlar borki tarjimada aynan bitta ma'nosini berish orqali kifoyalanish zarur. Masalan, "edge of table", "the rim of the moon" so'z birikmalarida edge va rim so'zlari cheti, qirrasi deb ekvivalentsiz tarjima qilinadi. Har bir so'z o'z o'rnida ishlatilmasa boshqa ma'nolarni ifodalashi mumkin.
4.Shuningdek, so'zlar farqlangan va farqlanmagan, ya'ni differensiyalashgan yoki differensiyalashmagan bo'lishi mumkin. Qaysidir so'zlar insonlarga xos bo'lsa, boshqalari jonsiz narsalarga, uchun imumiy ishlatiladigan so'zlarga oid bo'lishi mumkin.
Masalan, "to swim" so'zi suzmoq deb tarjima qilinadi va odamlarga xosdir. "To sail" esa transportga xos suzish ma'nosini ifodalaydi. "To float" jonsiz narsalar, obyektlar uchun ishlatiladi. "Travel" so'zi umumiy "safar" deb tarjima qilinsa, uning sinonimlari "trip" qisqa sayohat uchun, "voyage" va "journey" dengiz sayohati uchun farqlangan holda qo'llaniladi.
Tarjima jarayonida shunday so'zlarga duch kelinadiki, mos keladigan ekvivalenti bo'lmaydi, ya'ni ekvivalentsiz leksika yoki umuman mos kelmaydigan leksika deb ataladi. Bularga iboralar, boshqa davlatlarda qo'llanilmaydigan ismlar, ayrim geografik va joy nomlari, turli xil o'lchov birliklari, gazeta va jurnal nomlari, ma'lum bir xalqqa mos bo'lgan udumlar (realiyalar) kiritiladi:
1.Iboralar turg'un birikmalar sifatida so'zma-so'z aynan tarjima qilinmaydi, ularning tarjima qilinayotgan tildagi mos keladigan iboralar tanlanib tarjima qilinadi. Masalan:
-To be in someone's shoes-biror kishiga laganbardorlik qilmoq;
-To kill two birds with one stone- bitta o'q bilan ikki quyonni urmoq;
-A hard nut to crack-baland dorga osilmoq;
-One's hair hair stands on end-tepa sochi tik bo'lmoq.
2. Ko'pchilikka tanish bo'lmagan geografik va joy nomlari, manzili notanish bo'lgan joylar tarjima jarayonida anchagina qiyinchilik tug'dirishi mumkin va tarjimon bunday nomlarni qo'shtirnoqda berib tarjima qiladi. Masalan Tarbox, Bar Harbor...
-Are you staying at the Gloucester? It is the best hotel. 65-page.
-Siz "Glostercher"ga tushdingizmi? U shahardagi eng yaxshi mehmonxona. 73-bet

3.Ingliz tili va o'zbek tilidagi o'lchov birliklari ayrim hollarda o'xshash bo'lsa, ko'p hollarda farqlanadi. Ingliz tilidagi o'lchov birliklari o'zbekchada quyidagi o'lchov birliklariga mos tushadi:

Inglizcha o'lchov birliklari	O'zbekchada
Mile	1609 metr
Yard	91 santimetr
Foot	30 santimetr
Inch	2,5 santimetr
Stone	6 kilogramm
Pound	454 gramm
Ounce	31 gramm
Gallon	3,79 litr
Pint	0,57litr

Tarjimon bu o'lchov birliklarini tarjimada o'z holicha qo'llashiga to'g'ri keladi.

-The Celestial Empire Hotel was only two or three hundred yards from this bar.

-"Osmon saltanati" mehmonxonasi ushbu batdan bor yo'g'I 200-300 yard masofada joylashgan edi.

Shuningdek, O'zbek tili ham boshqa tillarda uchramaydigan o'z o'lchov birliklariga ega: qadam, musht, qarich, kaft kabilar.

4.Tarjima qilinayotgan tildagi gazeta jurnal nomlari atoqli ot bo'lgani uchun aynan tarjima qilinadi. Masalan, "Peoples" jurnalida berilishicha; "Forbes" jurnalida tahlil qilinishicha; "Правда Востока" gazetasi ma'lulotlariga ko'ra kabilar.

5.Tarjima nazariyasida xos so'zlar realiyalar deb atalib, ular biror bir xalqqa, millatgaoid udumlar, taomlar, narsalar bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz xalqi uchun "muffin" tovada pishirilgan qalin qaymoqsimon non ma'nosida, "lobby" koridor, qabulxona ma'nolarini anglatadi va ilar realiyalardir. O'zbek xalqi uchun to'y marosimlaridagi qiz uzatish, yor-yorlar, beshik, tandir, palovlar ham realiyalar bo'lib, boshqa bir xalq uchun izohsiz notanish so'zlar bo'lib tuyulishi mumkin.

- A number of pretty Chinese girls wearing cheongsams, slit either side to show off their shapely legs.

- Yoni kesik "chungazama" kiyib olgan ajoyib xitoylik qizlarning xushbichim, tekis oyoqlari ko'rinib turar edi.

Leksik Transformatsiyalar.

Tarjima jarayonida tarjimaning hammaga tushunarli bo'lishi, noo'rin so'zlardan qochib, yorqin tarjimani amalga oshirish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Ular so'zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Tarjima jarayonida ularning beshta turini uchratamiz:

1.Leksik transformatsiyaning birinchi turi qiyin bo'lgan so'zlarni tarjima jarayonida ma'nosini aniqlashda qo'llaniladi. Bunday holatni fe'l so'z turkumi doirasida ko'p qo'llaniladi. Chunki ingliz tilidagi fe'llar o'zbek tilidagi fe'llar kabi konkret, aniq emas, masalan "to have" fe'lini tahlil qilsak, aksariyat hollarda transformatsiyaga uchraydi. "Ega bo'lmoq", "bor" ma'nolarini ifodalaydi. Shuningdek, jumlada asosiy fe'l, modal fe'li va boshqa qator zamon fe'llarida ishtirok etadi.
-A drink or perhaps lunch?
-"I'll have a Cook and rum," I said.
-Biror narsa ichasizmiyoki ovqat olib kelaymi?
-Menga rom va "koka-kola" keltirsangiz,- dedim men.
Bunday ko'p ma'noli fe'llar ingliz tilida ko'p uchraydi.
2.Ikkinchi tur umumlashtirish bo'lib, asl jumladagi ortiqcha hisoblangan aniqliklar umumlashtiriladi. Masalan, asliyatda atoqli otlar informativ xususiyatga ega bo'lsa, tarjimada u xususiyatga ega bo'lmasligi, uni tushirib qoldirib, jumalarda xususiyatini aks ettirib tarjima qilish yaxshiroqdir.
-A door farther up the passage opened and a fat little man who could be either Italian or French came out.
-Eshiklardan biri ochildi va semiz, past bo'yli odam yo'lakka chiqdi.
3.Uchinchi tur asliyat va tarjima matnlar orasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Agar asliyatda berilgan jumlaning tarjimada biror qismini tarjima qilmasdan adekvatligi ta'minlansa, jumlaning o'sha qismi tushirib qoldirib tarjima qilinadi va sabab natija bilan almashtiriladi.
-"Well, here we are – Hong Kong", he said over his shoulder. "Looks pretty good. They say there's no place quite like it on earth. Could be they are right.
-Mana, Gonkongga ham uchib keldik, - dedi u. – Qanchalar go'zal! Aytishlaricha yer yuzida boshqa bunday joy yo'q emish. (Ular haq bo'lishlari mumkin- jumlasini hech qanday kerakli informativligi yo'qligi uchun tarjima qilinmay tushirib qoldirilgan.
4.To'rtinchi tur antonimik transformatsiya bo'lib, ba'zan so'zlarda inkor qo'shimchalar tushirib qoldiriladi.
-I could hear just a murmur of distant traffic, but nothing else.
-Mehmonxona tinch, faqat ko'chadagi qatnov ovozlari eshitilib qolardi.
Aslida (Faqat ko'chadagi qatnov ovozlari boshqa hech narsa eshitilmas edi deb inkor shaklda kesim berilgan)
5.So'nggi tur gapning tushirib qoldirilgan qismini to'ldirish yoki kompensatsiya deb yuritiladi. Matnning to'laqonli bo'lishini ta'minlash uchun bir stilistik vosita o'rniga uning o'rnini bosuvchi boshqa stilistik vositalar qo'llaniladi. Jumlada qo'llanilgan fonetik, stilistik, Grammatik vositalar tushirib qoldirilib, mazmun muvozanatini saqlash uchun to'ldiriladi, ya'ni kompensatsiya qilinadi.

-I leaned on the rail of the first-class deck of the ferry-boat and watched the third class passengers fight their way up the gangplank onto the lower deck.

-Men yo'lovchilarni orolga tashiydigan kema sahnida turib, pastki palubada joylashayotgan odamlarni kuzatardim. Shundan so'ng birinchi toifa yo'lovchilarning ko'tarilayotganini ko'rish uchun burilib qaradim: ular orasida Stella yo'q edi.

Ushbu misollardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, tarjima san'ati hozirgi zamon uchun eng muhim san'at turi va masalalaridan biri bo'lib, lug'at boyligi, mahorat, sabr va mukammal bilim manbaini talab etadi, bundan tashqari tarjimon ikki tilni chog'ishtirish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan transformatsiyalarni puxta o'zlashtirishi lozim. Bular esa tarjimanig adekvatligiga, tarjima asarlarning ko'payishiga, dabiyotimizning boyishiga va o'zga xalq va millatni tanishimizga va o'zimizni tanitishimizga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

2.Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. T.: 2005.Fan-352b.

2.Salomov G'. Til va tarjima.T.: 1966.Fan-382b.

3.G'ofurov I.,Mo'minov O. Tarjima nazariyasi. T.:2012.Fan-216b.